

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OILY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSETETI**

KASBIY TA'LIM FAKUL'TETI

KASBIY TA'LIM METODIKASI KAFEDRASI

5142000- MEHNAT TA'LIMI YO'NALISHI

**MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBLARGA
YUNALTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH USULLARI.**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajardi:

Zoyirov Hoshim Anvar o'g'li

Ilmiy rahbar:

o'qit. Nuriddinov Asliddin Erkinovich

**Malakaviy bitiruv ishi Kasbiy ta'lim metodikasi kafedrasida bajarildi.
Kafedraning yil maydagi majlisida muhokoma qilindi va himoyaga
tavsiya etildi (bayonnoma №)**

Kafedra mudiri:

dots. B.Muranov

**Malakaviy bitiruv ishi YADAK ning yil ___ iyundagi majlisida
himoya qilindi va _____ foizga baholandi (boyonnoma №).**

YADAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2015

Samarqand davlat universiteti Kasbiy fakulteti
«Kasbiy ta'limn metodikasi» kafedrasida majlisining
-bayonnomasidan
KO'CHIRMA

2015 yil

Qatnashdilar: Kafedra azolari 7 nafar.

Majlis raisi: dots. B.Muranov

Kotib: o'qit. A.Raximov

KUN TARTIBI:

Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi kafedrasida 2015-2016 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlarining dastlabki himoyasi va ularni himoyaga tavsiya etish haqida.

ESHITILDI: 2014-2015 o'quv yilida bajarilgan malakaviy bitiruv ishlari bilan majlis ahlini kafedra mudiri dots. B.Muranov tanishtirdi va quydagilarni bayon qildi:

2015-2016 o'quv yilida 5142000- Mehnat ta'limi yo'nalishining bitiruvchi kurs talabasi **Zoyirov Hoshim Anvar o'g'li** «Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish usullari» mavzusida bitiruv malakaviy ishini yozdi. Ilmiy rahbar o'qit.A. Nuriddinov Talaba ushbu mavzu bo'yicha yozgan ishini kafedraga taqdim etgan. Ish yuzasidan ilmiy rahbarning ijobiy mulohazalari ham bor. Shuning uchun so'zni bitiruvchi Zoyirov Hoshim Anvar o'g'liga bersak. U malakaviy bitiruv ishining mazmuni bilan tanishtirsa.

Zoyirov Hoshim Anvar o'g'liga malakaviy bitiruv ishining mazmun-mohiyati haqida gapirib, mavzuning dolzarbligi, o'rganilish darajasi, ilmiy va amaliy ahamiyati, amalga oshirilgan ishlar haqida gapirdi.

Shundan so'ng talabaga katta o'qituvchi U.Utanov o'qit A. Raximovlar savollar berishdi. Savollarga Zoyirov Hoshim Anvar o'g'liga javob berdi.

Zoyirov Hoshim Anvar o'g'lining chiqishi, savol-javoblardan so'ng mazkur malakaviy bitiruv ishi YADAK ga himoyaga tavsiya etish haqida fikr-mulohazalar bildirdi.

QAROR QILINDI:

1. 5142000- Mehnat ta'limi yo'nalishi bitiruvchi kurs talabasi **Zoyirov Hoshim Anvar o'g'lining** «Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish usullari» mavzusidagi malakaviy bitiruv ishi talabga javob beradi deb hisoblansin va u YADAK ga himoyaga tavsiya etilsin.

2. **Zoyirov Hoshim Anvar o'g'lining** ushbu malakaviy bitiruv ishiga SamDU Maktabgacha ta'lim metodikasi kafedrasida mudiri p.f.n.dots. Doniyev B.B . taqrizchi etib belgilansin.

3.Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi kafedrasining ushbu qarorini tasdiqlash fakultet dekanatidan so'ralsin.

Majlis raisi:

dots. B.Muranov

Kotib:

A.Raximov

A.Navoiy nomidagi SamDU Kasbiy ta'lim fakulteti «Mehnat ta'limi» yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi

Zoyirov Xoshim Anvar o'g'li

«Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish
usullari» **nomli malakaviy bitiruv ishiga**

T A Q R I Z

Hozirgi kunda o'quvchi talabalarning mehnat tarbiyasini, mehnat va kasb ta'limini, ularni kasb tanlashga yo'llashni takomillashtirish, yosh avlodni muntazam ijtimoiy foydali, unumli mehnatga jalb qilish masalalariga katta e'tibor berish talab etilmoqda, bu jamiyat taraqqiyotining bugungi kundagi talabi bo'lib, uni qondirish esa o'z navbatida ta'lim islohatlarida kuzda tutilganidek uzluksiz ta'lim tizimida o'rni beqiyosdir.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida aynan «Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish usullari o'qitishning samarali shakllari va usullari, uning maqsadi vazifalari to'g'risida, hamda mazmuni tuzilishi atroflicha tahlil qilingan, o'rganilgan va ahamiyatini yoritish tadqiqot maqsadi qilib berilgan.

Tadqiqot ishi tuzilishi jihatdan kirish, 2-bob, 4 band xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Tarkibiy tuzilmani qamrab olgan bo'lib ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi assolangan mavzuning ishlanganlik darajasi o'rganilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, shuningdek tadqiqot metodlari nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Ishning 1-chi boblarida mavzu muammosi bo'yicha ko'plab adabiyotlar, bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilgan.

Ikkinchi bobida asosan mehnat ta'limi uzviylashtirilgan o'quv dasturi 1-son pedagogika kollejining mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari hamda mehnat ta'limini o'qitishning an'anaviy hamda noan'anaviy dars metodlari tahlili amalga oshirilgan va asoslangandir.

Ishning 2-bobi o'z ichiga o'quvchilarning mehnat ta'limi bo'yicha olgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirishni baholash me'zonlari hamda turlari to'g'risidagi ma'lumotlar tajriba-sinov ishlari orqali asoslangan va u ishda o'z aksini topgandir.

Xulosa: Malakaviy bitiruv ishi mavzusi mazkur toifadagi tadqiqot ishlariga qo'yilgan talablarga javob berishni hisobga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi: SamDU Maktabgacha ta'lim
metodikasi kafedrasini mudiri p.f.n.

dots. Doniyev B.B

A.Navoiy nomidagi SamDU Kasbiy ta'lim fakulteti «Mehnat ta'limi» yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi

Zoyirov Xoshim Anvar o'g'li

«Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni kasblarga yunaltirishni takomillashtirish
usullari» **nomli malakaviy bitiruv ishiga**

T A Q R I Z

Respublikamiz mustaqillika erishgandan so'ng barcha sohalar kabi ta'lim sohasiga ham yangi vazifalar qo'ymoqda. Jumladan, bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasb- hunar ta'limi, qolaversa, oily ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlar yuz bermoqda. Zamonaviy talablrga javob beradigan malakali, yetuk kadrlar tayyorlash borasida yuqori natijalarga erishmoqda.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida aynan mehnat ta'limi darslarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish uslublari o'qitishning eng samarali shakllari va usullari, uning maqsadi vazifalari to'g'risida, hamda mazmuni tuzilishi atroflicha tahlil qilingan, mazmunini yoritish tadqiqot maqsadi qilib berilgan.

Malakaviy bitiruv ishi tuzilishi jihatdan kirish, 2-bob, 4 band xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Tarkibiy qisimlarni qamrab olgan bo'lib ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi, mavzuning ishlanganlik darajasi, maqsadi vazifalari adabiyotlar tahlili assolangan mavzuning ishlanganlik tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, shuningdek tadqiqot metodlari nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Xulosa Zoyirov Xoshim Anvar o'g'li o'zining malakaviy bitiruv ishi mavzusi mazkur toifadagi tadqiqot ishlariga qo'yilgan talablarga javob berishni hisobga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi.

dotsent. Urunov A

A.Navoiy nomidagi SamDU Kasbiy ta'lim fakulteti «Mehnat ta'limi» yo'nalishi
bitiruvchi kurs talabasi

Zoyirov Xoshim Anvar o'g'lining
« Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni
takomillashtirish usullari »
nomli malakaviy bitiruv ishiga ilmiy rahbar

MULOHAZALARI

Maktab o'quvchilari va kasb-hunar talabalariga beriladigan nazariy hamda amaliy ta'lim tarbiyaning birligi talqin etilsa, ularni halq xo'jaligi talablariga muvofiq mehnat va kasb korlik tayyorgarligi samarali bo'lishini hisobga olgan holda yoshlarimizni etuk mutaxassis qilib tarbiyalash maqsadida ushbu malakaviy bitiruv ishi, ya'ni « **Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish usullari** » mavzusi dolzarb topildi va tanlandi.

Mazkur malakaviy bitiruv ishida « Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish usullari » samarali shakllari va usullari, uning maqsadi vazifalari to'g'risida, hamda mazmuni tuzilishi atroflicha tahlil qilingan, o'rganilgan va ahamiyatini yoritish tadqiqot maqsadi qilib berilgan.

Tadqiqot ishi tuzilishi jihatdan kirish, 2-bob, 4 band xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat. Tarkibiy tuzilmani qamrab olgan bo'lib ishning kirish qismida mavzuning dolzarbligi assolangan mavzuning ishlanganlik darajasi o'rganilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari belgilangan, shuningdek tadqiqot metodlari nazariy va amaliy ahamiyati o'z aksini topgan.

Ishning 1- chi boblarida mavzu muammosi bo'yicha ko'plab adabiyotlar, bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari tahlil etilgan.

Ikkinchi bobida asosan mehnat ta'limi uzviylashtirilgan o'quv dasturi 1-son pedagogika kolleji 1- kurs o'quvchilarining Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarni darslarga yunaltirishni takomillashtirish usullarini samarali shakl va uslublari hamda mehnat ta'limini o'qitishning an'anaviy hamda noan'anaviy dars metodlari tahlili amalga oshirilgan va asoslangandir.

Xulosa: Malakaviy bitiruv ishi mavzusi mazkur toifadagi tadqiqot ishlariga qo'yilgan talablarga javob berishni hisobga olgan holda ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

o'qit. A. Nuriddinov

MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI DARSLARGA YUNALTIRISHNI
TAKOMILLASHTIRISH USULLARI.

REJA:

Kirish

Tanlangan obyekt (manba). Tadqiqot usullari.

I-BOB. O'QUVCHILARNING KASBIY XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH
METODIKASI

- I.1. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish masalalari hamda muammolari
- I.2. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda didaktik prinsip va xususiyatlar
- I.3. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirib ularni kasb tanlashga yo'llash bosqichlari
- I.4. Kasbiy shakllantirishning forma va metodlari

II-BOB. MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBIY
SHAKLLANTIRISH

- II.1. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish mohiyati
- II.2. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda kasbga yaroqlilik tamoyillari
- II.3. O'quvchilar kasbiy xislatlarini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
- II.4. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda kasb konsultasiya ishining maqsad va vazifalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyin jamiyatimizning barcha sohalarida o'zgarishlar ro'y bera boshladi, jumladan, ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun hamda “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” qabul qilindi.

Dasturning maqsadi – ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning Milliy tizimini yaratishdan iboratdir. Shularni inobatga olib respublikamiz maktab o'quvchilarini milliy dastur asosida uning g'oyasini ochib beruvchi “Umumiy qoidalar”da shunday deyiladi: “Respublikada amalga oshirilayotgan yangiliklardan asosiy maqsad va harakatga keltiruvchi kuch, bu inson, uning barkamol rivojlanishi, faravonligi, shaxs qiziqishlarini amalga oshirish sharoitlari, uni harakatlantiruvchi mexanizmlarini tashkil etish hamda kadrlar tayyorlash milliy modelini amalga oshirishni, har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy, psixologik-pedagogik va boshqa shart-sharoitlarini tashkil qilish zamonaviy o'zgaruvchan jamiyatga moslashtirishni, ta'lim va kasbiy dasturlarni ongli ravishda tanlash va o'zlashtirishni, jamiyat, davlat va oila oldida o'z mas'uliyatini his qiluvchi fuqarolarni tarbiyalashni ko'zda tutadi”.

Demak, mamlakatimiz rivojiga o'z hissalarini qo'sha oladigan yetuk malakali kadrlarni yetkazib berish, bunda yoshlarni maktab chog'idanoq kasblarga qiziqtirish talab etiladi. Ushbu talabni qondirish esa umumta'lim maktablarida kasb tanlashga yo'llash ishlarini samarali tashkil etishga bog'liq. Hozirgi kunda o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va ta'limini, ularni kasb tanlashiga yo'llashini takomillashtirishda, texnik ijodkorlik masalalariga, umumta'lim maktablarida o'tilayotgan fanlarni o'tishda kasblar haqida tushunchalar berib borish, sinfdan va maktabdan tashqari tashkil etilayotgan ishlarga va turli xil to'garaklarga katta e'tibor qaratish lozim. Buning uchun maktab rahbariyati va barcha jamoasi hamda

ota-onalarning hamkorlikda ish olib borishi katta ahamiyat kasb etib, o'zining ijobiy natijalarini berishi shubhasizdir.

Haqiqatdan ham yoshlarimizga zamon talablari asosida barcha fanlardan chuqurroq bilimlar berish, yangi mavzularni yoritib borish jarayonida tegishli kasb va bu kasb egalari haqida o'quvchilarga dastlabki ma'lumotlarni berib borish bilan o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish zarurdir.

Kundan-kunga umumta'lim, mehnat-politexnika maktabi oldida qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Bu talablar tabiat va jamiyat qonunlarini bilish maqsadida ta'lim mazmunini fan va texnikaning eng yangi yutuqlari bilan boyitishga, ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining rolini oshirishga va bolalarni tarbiyalash uchun ota-onalarning mas'uliyatini kuchaytirishga, asta-sekin yoshlarning umumiy kasb ta'limiga o'tishini ta'minlashga, maktab o'quvchilarining tarbiyasi hamda ularni kasbga yo'naltirish ishini kuchaytirishga, yuqori sinf o'quvchilariga kasb ta'limi berishni joriy qilishga qaratilgan.

Shu sababli o'z navbatida politexnik mehnat va kasb ta'limi oldiga murakkab vazifalar qo'yadi, vujudga kelgan imkoniyatlardan maktab o'quvchisi shaxsini har tomonlama rivojlantirish uchun to'liq foydalanish imkonini beradi.

Tanlangan obyekt (manba) tadqiqot usullari

Respublikamiz o'zining mustaqil taraqqiyotiga erishgan 1997 yil 29 avgustida «Ta'lim to'g'risida» gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi. Bu muhim hujjatlarning asosiy maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish undan o'tmishdan kelgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la holos bo'lish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviyat va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Shuningdek, ta'limda bir qator ijobiy o'zgarishlar o'zgarmoqda. Ta'lim amalliyoti bilan bog'lash bundan tashqari fan yutuqlarini ishlab chiqarishga qo'llash ilgari surilmoqda. Ta'lim jarayoni ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash va shu bilan bir qatorda ta'lim samaradorligini oshirish uchun o'qitishda muammoli ta'lim metodidan foydalanish o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirishda yaqindan yordam beruvshi tabiiydir. Bajarilgan har bir bitiruv malakaviy ishi talaba uchun ilk bor ilmiy ijobiy izlanishga qadam qo'yish demakdir. Bundan tashqari talabalar ilmiy manbalar bilan ishlash ularni tahlil qilish ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar.

Adabiyotlar tahlili: Biz ushbu malakaviy bitiruv ishini bajarish jarayonida Respublikamiz nashriyotlarida chop etilayotgan darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalarni o'qib o'rganib tahlil qilishga harakat qildik, namuna sifatida ayrimlarini keltiramiz.

- Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston kelajagining poydevori» Toshkent 1997 yil.

- Karimov I.A. «O'zbekiston buyuk kelajak sari». Toshkent., «O'zbekiston». 1998 yil.

- I.A.Karimovning 2000 yil 6 apreldagi Respublikamiz olimlari, shoirlari, yozuvchilari bilan «Yoshlarimiz ongida milliy, ma'naviy mafkurani shakllantirish» maqsadidagi uchrashuv.

- Bu muhim hujjatlarning asosiy maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish undan o'tmishdan kelgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la holos bo'lish,

rivojlangan demokratik davlatlar darajasida yuksak ma'naviyat va ahloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish xaqida ma'lumotlar berilgan.

- Vorobyev A.I. "Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi".

Toshkent. "O'qituvchi". – 1987 yil.

- Txorjevskiy A.D. «Mexnat ta'limi metodikasi». Toshkent. O'qituvchi 1990y.

- Davlatov K., Mag'zumov P.T. «Mexnat va kasb tanlash nazariyasi hamda metodikasi». Toshkent. O'qituvchi 1990y.

- Magzumov P.T., Antonov A.F., Surayev A va boshqalar. "O'quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash". Toshkent. "O'qituvchi". 1991 yil.

- Ushbu qo'llanmalarda talabalarga kasbiy xislatlarini shakllantirish, kasb tanlashga yo'llash, kasblarga nisbatan qiziqish o'yg'otish xaqidagi ma'lumotlar keltirilgan.

- Vorobyev A.I. "Mehnat politexnika ta'lim didaktikasi". Toshkent. "O'qituvchi". 1997 yil.

- Ruvinskiy L.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: O'qituvchi, 2000.

- Yo'ldoshev J.G'. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. -T.: Sharq, 2000.

- Xo'jayev N. va boshqalar. Ta'lim nazariyasi. 2003.

- Voljskiy A. Metodika vospitatelnoy raboty s molodejyu. -M.: 2003.

- Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opyt i problemy. - Spb: Sev.siyaniye 2003.

- Xoshimova M. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari (monografiya). - T.: 2004.

- Ushbu qo'llanmada esa mehnat ta'limi fani orqali o'quvchilarning kasblarga nisbatan qizishlarini paydo qilish, kasblarga mexr o'yg'otish, ustaxonalardagi amalliy mashg'ulotlarni unumli va samarali, ijtimoiy foydali mehnatga aylantirish yo'llari keltirilgan.

- Kasb-hunar ta'limi jurnallari 2000-2008 yillar.

- Maktab va hayot jurnali 2000-2008 yillar.

- Xalq ta'limi jurnali 2000-2008 yillar.

-Ushbu ushbu jurnal va gazetalarda ham aynan shu haqdagi ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan umumta'lim maktablarining o'quv moddiy bazasini tashkil qilish o'quvchilarning bilim olishida samarali o'rin egallashlari, kasblarga nisbatan mexr muhabbat xissini o'yg'otishini, ijtimoiy foydali mehnatga undashlari, kasbiy xislatlarni shakllantirish haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Bundan shunday xulosa chiqadigan yuqorigidagi ko'rsatib o'tilgan o'quv metodik adabiyotlarni o'qib o'rganishimiz asosida *mavzumiz dolzarbligini* aniqlashga harakat qildik. U quydagicha bo'lishi mumkin.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy hislatlarini shakllantirish uchun:

1. Umumta'lim maktablarida sinfdan tashqiri va darsdan tashqiri mashg'ulotlarni tashkil qilish.
2. O'quv ustaxonalarida o'quvchilar ijtimoiy foydali mehnatini tashkil qilish.
3. O'quvchilarga kasblarga bo'lgan qiziqish va mexr paydo qilish.
4. Nazariy olingan bilimlarni mustaxkamlash uchun doimo amaliyot bilan uzviylikni rivojlatirish.

Ilmiy tadqiqot ishlarimizning maqsadi. Mehnat ta'limi darslarida o'qituvchi o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish maqsadida quyidagilarga e'tibor qaratishi kerak:

- mavzularni yoritishda kasb ta'limiga doir materiallar mazmuni har tomonlama sinchiklab o'rganish va o'quvchilarga yotkazib berish;
- o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib darsni rejalashtirish va olib borish;
- darsda mashhur kishilar, ularning kasbi, hayoti haqidagi ma'lumotlardan misollar keltirish;
- kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va olib borishda o'quvchilarning yosh hamda individual xususiyatlariga e'tibor qaratish.

Bu maqsaddan kelib chiqqan holda *tadqiqot ishlarimizning vazifalari* quydagilardan iborat.

Umumta'lim maktablari mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda quyidagilarga e'tibor qaratilmog'i lozim:

- a) kasb tanlashga yo'llashning umumiy masalalari;
- b) amaliy mashg'ulotlar jarayonida kasblarga qiziqish uyg'otish;
- v) kasb ta'limi bo'yicha sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'tkazish, shuningdek, o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirish ishlari olib borish tadbirlariga yuksak darajada e'tibor qaratish.

O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish pedagogika va psixologiya fanlari qo'lga kiritgan eng yangi yutuqlar asosida tashkil etish, bunda texnika va ishlab chiqarish texnologiyasining rivojlanish darajasi, maktabning ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalari hisobga olinishi lozim.

Dars samaradorligini oshirishni. o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishni, ijodkorlik ishlariga jalb qilish, o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishni taqozo etadi.

Ilmiy tadqiqot ishlarimizning peredmeti. Mamlakatimiz prezidenti tamonidan ta'lim-tarbiya sohasida umuman halq xo'jaligi fan madaniyat bo'yicha chiqarilayotgan qonunlar, fomonlar, umumta'lim maktablariga oid, mehnat ta'limiga oid bo'lgan o'quv adabiyotlari, jurnallarni o'rganish.

Maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ***ilmiy tadqiqot ishlarimiz gipotezasi*** quyidagicha bo'lishi mumkin. Umumta'lim maktablarida uquv ustaxonalaridan foydalanib darslar tashkil qilinsa dars samaradorligini oshirish.

O'quv ustaxonalaridan foydalanishda ishlab chiqarishni to'g'ri va yaxshi tashkil etish davrida foydali mehnat bilan shug'ullanish.

O'quvchilarda kasbiy xislatlarni shakllantirish, kasblar haqida ma'lumot berish, kasblarga nisbatin mexr o'yg'otish.

Tadqiqot obyektini etib. Samarqand shaxar ___-umumta'lim maktabi tanlandi.

Ilmiy metodik, yangiligi viloyatimiz umumta'lim maktablarida o'quv jarayonida o'quv ustaxonalaridan foydalanishgan xolda ijtimoiy foydali mehnatni tashkil qilish, o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish.

I-BOB. O'QUVCHILARNING KASBIY XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

I.1. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish masalalari hamda muammolari

Yoshlarni kasbga yo'naltirish, ularda biror kasbga nisbatan muhabbat uyg'otish va ana shu kasbga nisbatan kasbiy xislatlarini shakllantirish umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, jamiyatning o'sib kelayotgan yosh avlod tabiiy istedodining qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, insonga uning kasbiy o'zligini anglash, uning o'z ehtiyojini, imkoniyatini hamda turli kasblar va malakalarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarni hisobga olgan holda eng maqbul bandlik turini tanlashda yordam beruvchi maxsus tadbirlar majmuasini o'tkazishdir.

O'quvchilarni yoshlik davridayot kasbiy xislatlarini shakllantirish amaliy faoliyat yo'nalishi sifatida ikki asosiy maqsadga xizmat qiladi:

Shaxsni ijtimoiy va iqtisodiy himoyalash, kasbni o'zining qiziqishlari, ehtiyojlari, layoqati, imkoniyatiga mos ravishda tanlagan inson uni samaraliroq o'zlashtiradi hamda ham kasbiy, ham moddiy tomondan sezilarli natijalarga erishadi.

Mamlakatning mehnat salohiyatini yanada samaraliroq taqsimlash va foydalanish hisobiga davlatning iqtisodiy qudratini mustahkamlash.

Shunday qilib, kasbga yo'naltirish ishining pirovard natijasi – alohida insonga va umuman davlatga real ijtimoiy-iqtisodiy foyda keltirishdir. Kasbga yo'naltirish quyidagilarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy axborot – aholining turli toifalarini zamonaviy ishlab chiqarish turlari, mehnat bozorining holati, xo'jalik majmuasining malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojlari, kasblar bozorining kelajakdagi rivojlanishi, kasblarni o'zlashtirishning shakllari va sharoitlari, mehnat faoliyati jarayonda kasbiy malakaviy o'sish hamda o'z-o'zini takomillashtirish imkoniyatlari bilan tanishtirish;

Kasbiy maslahat – insonga o'zining psixologik xususiyatlari va imkoniyatlari, hamda jamiyatning ehtiyojlarini hisobga olgan holda kasb yo'lini tanlash bo'yicha ongli ravishda qaror qabul qilish maqsadida kasbiy o'zligini aniqlashda yordam berish;

Kasbiy tanlash – insonga psixologik, psixofiziologik, tibbiy tashxis asosida o'zining psixologik, fiziologik xususiyatlariga ko'proq mos bo'lgan turli kasbiy yo'nalishlar to'g'risida tavsiyalar berish;

Kasbiy saralash – insonning ma'lum kasbga tegishli me'yoriy talablarga mos ravishda kasbiy loyqlik darajasini aniqlash;

Kasbiy ishlab chiqarish va ijtimoiy molashuv – xodimning kasbiy shakllanishiga, unda tegishli ijtimoiy va kasbiy sifatlarning, faol ijodiy mehnatga va mohirlikning yuqori darjasiga erishishga bo'lgan yo'nalish va ehtiyojlarining shakllanishiga yordam beruvchi tadbirlar tizimi.

Yuqorida ko'rsatilgan faoliyat yo'nalishlarini majmuaviy amalga oshirish aholini, shu jumladan umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish ishlarida haqiqiy tizimli yondashuvni amalga oshirish imkonini beradi.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish bilan bir qatorda, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy salmog'ini rivojlantirishga hissa qo'shayotganimizni doimo yodda tutmog'imiz zarur. Chunki, o'sha biz tarbiya qilayotgan yosh avlod kelajakda yurtni boshqaruvchi, gullab-yashnatuvchi, ozod va obod vatanga aylantiruvchi, aksincha, uni tanazzulga uchratuvchi shaxslar bo'lib yetishadilar. Ana shu vajdan ham, o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish har doim ham mamlakat, jamiyat, oila oldida turgan eng dolzarb masala bo'lib qolaveradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan muammo, dolzarb masalalarning yechimini topish, uni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish nafaqat ota-ona zimmasiga balki, oliy va o'rta maxsus ta'limi xodimlarining ham zimmasiga ulkan vazifalarni yuklaydi. Biz ana shu masalaga ijobiy yondoshib, uni sobit qadamlar tashlash bilan yengib o'tmog'imiz zarur.

I.2. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda didaktik prinsip va xususiyatlar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1997 yil 29 avgustida chiqargan farmonida «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» da kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishi ko'rsatib o'tildi. Xususan, yoshlarga kasb ta'limi bilimlarini berish kasbkorlik haqida tushunchalar berilishining yo'l-yo'riqlari belgilab berildi. Haqiqatdan ham kasb ta'limining ilmiy mazmuni va eng samarali tizimini ishlab chiqish pedagogika fanining dolzarb masalaridan biri hisoblanadi.

Maktab o'quvchilarining kasbiy xislatlarini shakllantirish, kasbga nisbatan mehr-ishtiyoq uyg'otish, kasbni ardoqlash va unga tayyorgarlikning takomillashgan tizimiga oid asosiy didaktik prinsiplar quyidagilardan iborat:

a) o'quvchilarning o'zlashtirib olishi uchun mehnat operasialari qulaylik prinsipini hisobga olgan holda asosiy texnologiya belgilari bo'yicha joylashtiriladi, ish obyektlari bo'lgan buyumlarni tanlashni osonlashtiradi, bunday mehnat o'quvchilarning vaqt omilini qadrlashga o'rgatadi;

b) o'quvchi o'ziga ajratilgan narsani yasash uchun ma'lum bir vaqt ajratilganligi va shu vaqtdan unumli foydalanish zarur;

v) maktab o'quvchilari kasbiy tayyorgarligining takomillashgan tizimini kooperasiya asosida birlashtirish, prinsipsiz tasavvur qilish mumkin emas. Bu prinsip esa o'z tuzilish jihatdan oddiy bo'lgan texnik modellarda asboblarda uchraydigan ancha murakkab detallarni tayyorlash ko'pincha quyi sinf o'quvchilariga qiyinchilik qiladi, bu esa yuqori sinf o'quvchilari kuchi bilan kooperasiya asosida birlashish yo'li bilan tayyorlash maqsadga muvofiqdir. Shu asosda qurilgan mehnat ta'limi darslari o'quvchilarda do'stlik, o'rtoqlik, hamfikrlilik, o'zaro yordam hislarini tarbiyalashga yordam beradi;

g) o'quvchilarni kasbiy shakllantirish fizika, kimyo, matematika, chizmachilik, biologiya fanlarining uzviy ravishda bog'liqligini ko'zda tutadi. Bu

prinsipni amalga oshirish uchun har bir mashg'ulotda tabiiy-ilmiy sikldagi fanlarning yig'ma tematik rejasi asosida ish ko'riladi;

d) maktab o'quvchilari kasbiy tayyorgarligining tarkibiy qismi, ularni mehnat jarayonida jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar, yangi texnologiyalar asosida tarbiyalashdir.

O'quvchilarda mehnatga nisbatan yangicha munosabat ruhida yondoshish, iqtisodiy munosabatda bo'lishni umumta'lim jarayonini kasb ta'limni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali amalga oshirishi mumkin.

Kasb tanlashga yo'naltirish ishi deganda hayotga qadam qo'yayotgan o'quvchilarga biror kasbni to'g'ri tanlashida amaliy yordam ko'rsatishga qaratilgan tadbirlar tizimini tushunish kerak. Bu ish esa quyidagi tadbirlardan tashkil topadi:

1) o'quvchilarni keng tarqalgan kasblar va ixtisosliklar bilan qulay sharoitda tanishtirish,

2) ularda biror kasblarga moyilliklarini aniqlash,

3) kasb tanlashga oid maslahatlar berish

4) o'quvchilarning kasbiy xislatlarini inobatga olish va ular bilan hisoblashish;

5) o'quvchilarda kasbkorlik xislatlar majmuasini ijobiy rivojlantirish va h.k.

Yuqoridagi ishlar mehnat ta'limi darslari bilan bir qatorda, ko'rgazma, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuv, turli xil tadbir va hokazolar uyushtirish asosida amalga oshiriladi.

Kasb-korlik takomillashgan tizim asosida qarab chiqilsa, u quyidagi muammolarni hal etmog'i lozim.

1. Maktablarda, liseylarda, kollejlarda moddiy texnika bazasini yanada takomillashtirish va rivojlantirish, o'quv ustaxona kabinetlarini shu kunning talablaridan kelib chiqqan holda jihozlash, mehnatni ongli, ilmiy asosda tashkil etish, moddiy jihatdan ta'minlash hamda tayyor mahsulotlarni sotish.

2. Kasb ta'limi bo'yicha shu kunning o'qituvchi kadrlarini jahon standartlari asosida tayyorlash.

Kasb-korlik tayyorgarligi tizimini takomillashtirish asosida tuzilgan kasb ta'limining yig'ma mavzu rejasida quyidagi talablarga javob berishi kerak.

1. Dasturning kasb ta'limi va yog'och – metallarga ishlov berish sohasidagi boshqa mavzular bo'yicha texnik ma'lumotlar rejasida ularning mazmun jihatdan umumiylikiga qarab bir grafaga joylashtirish.
2. Har bir mavzu bo'yicha amaliy ishlarga ham o'quvchilarning o'quv materialini sifatli o'zlashtirishi uchun zarur bo'lgan muayyan soat ajratiladi va bu soat hajmi jihatdan yog'och-metallarga ishlov berish uchun vaqt bilan taxminan birday bo'lishi kerak.
3. Dasturning «Buyumlarni konstruksiyalash», «Elektrotexnika ishlari» degan mavzular uchun har bir sinfda 3 soatdan 5 soatgacha vaqt ajratish. Chunki, bularning hajmi boshqalarga nisbatan ozroq miqdorni tashkil qiladi.

Shu bilan bir qatorda mehnat va kasb ta'limi fanlarining nazariy asoslarini o'rganishda uning didaktik prinsiplariga kengroq to'xtalib o'tiladi. Keltirib o'tilgan didaktik prinsiplarga tayangan holda o'quvchilarda kasbiy xislatlarni shakllantirish o'zining ijobiy natijalarini beradi. Ana shu yo'l bilan kasbiy shakllantirilgan yoshlar kelajakda o'zining mustahkam o'rniga ega bo'la oladi. O'z kasbini sevuvchi, o'ziga yuklatilgan vazifani sidqidildan bajaradigan kadr bo'lib yetishadi, u qaysi kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar.

I.3. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirib ularni kasb tanlashga yo'llash bosqichlari

Quyi sinf o'quvchilari kasb tanlashdan hali yiroq turadilar. Biroq ular o'rtasida to'g'ri yo'lga qo'yilgan kasb tanlash ishi shunday bir negiz bo'lish kerakki, yuqori sinflardagi o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari, o'y va niyatlari keyinchalik shu negiz asosida rivojlangan bo'lsin. Chunki, yosh o'quvchilar yuqori sinf o'quvchilari bajarayotgan ish, o'qishga nisbatan munosabatlarini o'zlarining onglariga singdirib boradilar. Shu boisdan ham yuqori sinf o'quvchilarini kasbi shakllantirishga iloji boricha ijobiy yondoshish talab etiladi.

Beistisno barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular – mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushuntirish va anglash, o'z ishini rejalashtirish va nazorat qila bilish; ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ishda batartib va intizomli bo'lish, toqatlilik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish, materiallar va vaqtni tejash va shu kabilar. Ana shu xislatlar va fazilatlarining hammasi bolalarda 1-sinfdan boshlab shakllantira borish zarur.

Bolalarni kasblar olamiga asta-sekin olib kirish, ularni shu olamda mo'ljal olishga o'rgatish zarur. O'qituvchi o'quvchini darsda kuzatish, u bilan suhbatlashish, bola faoliyati mahsulini tahlil qilish jarayonida uning ba'zi bir xususiyatlarini, mayllarini payqab oladi, bu xislatlarni rivojlantirish yuzasidan tegishli ishlarni ado etgandan keyin bular keyinchalik kasbini belgilashda asosiy omil bo'lishi mumkin. Bu masalalarni ayniqsa, mehnat ta'limi darslarida yaxshi yo'lga qo'yish zarur. Sababi mehnat ta'limi darslarining aksariyat yuklamasini amaliy mashg'ulotlar tashkil etadi, shunday ekan o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda mehnat ta'limi darslarining ahamiyati kattadir.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbini to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Ko'pgina olimlar o'tkazgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maktab o'quvchilarining taxminan 30%da tanlagan kasbiga nisbatan barqaror qiziqishlar boshlang'ich sinflardayoq shakllanar ekan. O'qituvchilarning vazifasi – o'quvchilarning qiziqishlarini mumkin qadar oldinroq aniqlashdan va jamiyat talab-ehtiyojlariga muvofiq shu qiziqishlarni rivojlantirishdan, inson shaxsini har tomonlama uyg'un kamol toptirish uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish alohida qulayliklarga ega. Buni mehnat darslari kasbga yo'naltirishga qaratilgan yo'lining tahlili misolida ham ko'rish mumkin. I-V sinflarda mehnat ta'limining asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarda mehnat inson uchun birinchi zaruriyat, ijtimoiy burch ekanligiga, har qanday kasbni egallash uchun mustahkam va chuqur bilimlar kerakligiga ishonch hosil qilishdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham mehnat ta'limi darslarida qariyb 80% vaqt amaliy ishlar uchun ajratiladi.

Shu bilan birga darslarda bolalar odamlar mehnat faoliyatining asosiy sohalari bilan ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashuvchi sanoat va qishloq xo'jaligi ishlariga oid eng ko'p tarqalgan kasblar bilan tanishtiriladi. O'qituvchi ilgari tuzgan kasbga yo'naltirish rejasiga muvofiq tarzda dars reja-konspektini yoza turib, kasbga yo'naltirish darsi oldiga maqsad qo'yib, kasbga yo'naltirishga oid ma'lumotlarni unga kiritadi. Bu esa biror bir kasb, asbob, ishlab chiqarish texnologiyasi, muayyan mehnat jarayonlarini o'rgatishdan, kasb jihatdan muhim xislatlarni tarbiyalashdan, o'quvchilarni ilgari belgilangan reja asosida o'rganishdan yoki ana shu tarkibiy qismlarning hammasini qo'shib olib borishdan iborat bo'lishi mumkin.

Quyi sinf o'quvchilari xilma-xil materiallar (qog'oz, karton, tabiiy materiallar, tunuka, sim, yog'och, fanera, plastmassa, tolali materiallar) bilan ish ko'radilar, ular ishlashga oid o'zlariga bop, ma'qul bo'lgan mehnat jarayonlarini

o'rganadilar. Texnik va texnologik tushdagi masalalarni yechishni o'rganadilar, turli materiallar hosil qilish va qo'llanish ishini, bu materiallarning odamlar turmushidagi ahamiyatini o'rganib oladilar, u yoki bu texnologik jarayonlarni bajarish uchun mo'ljallangan eng oddiy asboblardan foydalanish yo'llari bilan tanishadilar va foydalanishni o'rganadilar, tegishli kasblar to'g'risida ma'lumotlar oladilar. Chunonchi, o'qituvchilar uchun ishlab chiqilgan «Transport» konstruktori bolalarni 18 xil turli transport mashinalari va kasblar bilan tanishtirish imkonini beradi.

O'quvchilar qurilish konstruktori bilan ishlab, qurilish kasblari, ularning muhimligi va zarurligi to'g'risida, qurilish bilan bog'liq bo'lgan odamlar mehnatining mazmuni haqida ma'lumotlar oladilar, qurilish obyektlarini modellashtirishni o'rganadilar. Bu ishlar bolalarda texnik tafakkurni, imkonga oid tasavvurlarni, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yordam beradi, ularda quruvchi mehnatiga hurmat bilan qarash hissini tarbiyalaydi.

Texnik konstruktor bilan ishlash chog'ida bajariladigan topshiriqlar o'quvchilarni mashinasozlik va elektrotexnika asoslari bilan tanishtiradi, ularda texnik tafakkurni rivojlantiradi, texnikaga muhabbat hislarini tarbiyalaydi, unchalik murakkab bo'lmagan texnik qurilmalarni bilib olish imkonini beradi. Bolalar mashinasozlikka oid keng tarqalgan va zarur kasblar, ana shu kasblarning mehnat mazmuni bilan tanishadilar.

«O'simliklarni o'stirish va hayvonlar hayoti bilan tanishtirish» bilimlari bolalarni qishloq xo'jaligi asoslari bilan tanishtirishni ko'zda tutadi. O'quvchilar xonaki o'simliklarni parvarish qiladilar, piyoz, xonaki o'simliklarni yetishtirish bo'yicha tajribalar o'tkazadilar. Ular maktab o'quv-tajriba uchastkasida ishlab yerda mehnat qiladilar: tuproqni yumshatadilar. O'simliklarni o'toq qilib, begona o'tilardan tozalaydilar, o'simliklarning o'sishini kuzatadilar, o'z mehnatining natijalarini ko'radilar, odamlar mehnatini qadrlashni, erni ezozlashni o'rganadilar.

O'quvchilar chorvachilik kasblari bilan ham tanishadilar, hayvonlarni to'g'ri parvarish qilishni o'rganadilar.

O'qituvchining o'quvchilarda yerga omilkorlik bilan qarash hissini shakllantirishi, qishloq xo'jaligidagi mehnat to'g'risida to'g'ri tasavvur berishi, o'z mehnati va o'z jamoasi mehnati natijalaridan xursand bo'lishni o'rganishi muhimdir. Shu boisdan ishni shunday rejalashtirish kerakki, bolalar chorva mollarini parvarish qiladigan, hosilni yig'ishtirib oladigan, mehnat natijalarini hisob-kitob qiladigan bo'lsinlar. Bunday hollarda bolalarning ishga qiziqishi kuchayadi va kasbga yo'naltirish ishi alohida mazmun kasb etadi. Yuqori sinflarda o'quvchilar kasblar bilan professiogrammalar yordamida tanishadilar. Kichik yoshdagi o'quvchilar uchun esa hikoya qilib berish, suhbat o'tkazish, kasb namoyandalari bilan uchrashish, diafilmlar, kinofilmlar qurish, albomlarni ko'zdan kechirish ko'proq ma'quldir.

Bu sohada olib borilayotgan barcha ish shakllaridan suhbat o'tkazish hammasidan ham ko'proq foydalidir. Suhbat bolalarning faol ishtirokida o'tkazilishi muhimdir. Shu maqsadda o'qituvchi kasblar to'g'risida, ayniqsa ota-onalari, qarindoshlari yoki tanish-bilishlari mazkur kasbda ishlayotganlarning bolalari sinfda bo'lsa, shu kishilarning kasblari haqida ma'lumotlar to'plash yuzasidan o'quvchilarga topshiriqlar berishi mumkin. Suhbatlar hikoya qilib berish, fotosuratlarini namoyish qilish, ta'limning texnik vositalarini qo'llanish bilan to'ldirilishi mumkin. Informatika va hisoblash texnikasi imkoniyatidan foydalanish ayniqsa muhimdir.

Mehnat ta'limi darslarining amaliy qismi mazkur kasbdagi odamlarning mehnati bilan bog'lansa ayni muddao bo'lar edi. Masalan, «Tolali materiallar bilan ishlash» bo'limini o'rgana turib, o'quvchilar bichikchi kasbi bilan tanishadilar; kiyim tikish kasbi bilan tanishadilar; murakkab bo'lmagan bichish ishlarini bajaradilar; turli choklash ishlarini bajarib, tugmalar qadab, kiyimlarni mayda tuzatish ishlarini ado etib, olgan ma'lumotlaringi mustahkamlaydilar.

O'quvchilarni dasturda ko'zda tutilgan kasblar bilan tanishtirishdan tashqari kasbni targ'ib qilish, ya'ni bolalarni ushbu tuman uchun zarur bo'lgan kasblar bilan tanishtirish, ularda ana shu kasblarda nisbatan hurmat ehtiromni tarbiyalash lozim.

Kuzatish – o'quvchilarni o'rganishning keng ommalashgan metodidir. Bu metod muayyan maqsadni ko'zlaydi, ish reja asosida olib boriladi, kuzatishning yakunlovchi natijalari qayd qilinadi. Mehnat ta'limi darslari kuzatish o'tkazish uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi.

Diagnostik suhbatlar o'tkazish ham qo'llaniladi. Bunday suhbatlar yakka tartibda yoki jamoa tarzida o'tkazilishi mumkin.

Quyi sinflarda o'tkaziladigan mehnat darslarida o'quvchilar faoliyati natijalarini tahlil qilish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud. Chunki mehnatning turli obyektlarini tayyorlash chog'ida har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari g'oyat ravshan bo'ladi: bir xil bola texnik konstruktorni yaxshi biladi, ikkinchi xil bola tikishda mahorat ko'rsatadi, uchinchi xil bola esa maktab uchastkasida o'z qobiliyatlarini namoyon qiladi va hokazo.

O'quvchilarning hujjatlarini va amaliy ishlarini tahlil qilish ham bola shaxsini o'rganishda o'qituvchiga yordam berishi mumkin.

O'quvchilarning shaxsini o'rganish ularni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. O'qituvchi o'quvchining alohida xususiyatlarini payqab, unda mavjud iste'dod nishonalarini rivojlantirish metodlarini topa olishi, uning xulq-atvoridagi salbiy jihatlarni bartaraf etishi mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, kasbga yo'naltirish ishi – o'quv jarayonining uzviy tarkibiy qismidir. Quyi sinflardan boshlanadigan bu ish jamiyat uchun zarur, har bir kishining xususiyatlariga mos kasblarga barqaror qiziqishini tarbiyalashga yordam beradi. Mehnatga qiziqishning mavjudligi va mehnat qilishga shaylik – shaxs yetukligining eng muhim ko'rsatgichlaridan biridir.

Mehnat ta'limi darslari bilan bog'langan holda sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlarda o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish ham yuqori samaradorlikka ega bo'lib, kasblarni ongli ravishda tanlashga, ularning ijobiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, moddiy ishlab chiqarish, fan, texnika borasida va shu kabi sohalarda ularni ishga qiziqishni shakllantirishga ko'p jihatdan yordam beradi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarni olib borayotgan kasbga yo'naltirish ishida o'quvchilarning yosh va bilish xususiyatlariga qarab bir necha bosqichni ko'rsatib o'tish mumkin.

Birinchi bosqich. (I-IV sinflarning o'quvchilari bilan ishlash) – moddiy ishlab chiqarish sohasida mehnatga bo'lgan ijtimoiy qiziqishlarni shakllantiradi, o'quvchilarda umuman mehnatga ijobiy munosabatda bo'lishni, eng muhimi – jismoniy mehnatga jiddiy munosabatda bo'lishni, ishchi degan nomni hurmat qilishni, qo'lidan keladigan o'z mehnati bilan atrofdagi kishilarga quvonch bag'ishlashga va bundan ma'naviy qoniqish olishga intilishni shakllantiradi.

Bu borada ishlar oldindan tuzilgan reja asosida olib boriladi. Bu rejaga muvofiq ekskursiya uyushtirish va eng ommalashgan kasblar to'g'risida qishloq maktablarining o'quvchilari uchun jamoa xo'jaligida, shahar maktablarining o'quvchilari uchun korxonalarda, ota-onalarning ishlari va ularning mehnaga erishgan muvaffaqiyatlari haqida suhbatlarga tashkil qilish ko'zda tutiladi. Ana shu yosh guruhidagi o'quvchilari uchun maktab oshxonasiga, mehnat kabinetiga, kutubxonaga, kasb-hunar kollejlariga, korxonalariga, aloqa bo'limiga va shu kabi joylarga ekskursiya tashkil qilish mumkin. Bu ekskursiyalar chog'ida ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan odamlarning mehnatiga, xom ashyodan tayyor mahsulot olishga yordam berayotgan mehnat qurollariga asosiy e'tibor beriladi, jamiyat va ayrim odamlar turmushida mehnatning roli o'qitilib o'tiladi.

Ikkinchi bosqich. (V-VII sinflarning o'quvchilari bilan ishlash) – biron ish qilishga undaydigan bosqich. Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda bilishga bo'lgan qiziqish, odatda, shakllanadi. Shu boisdan ushbu bosqichda kasbga yo'llash sohasida olib borilayotgan ishda o'quvchilarda ish turlari (texnika bilan ishlash, tabiat obyektlari va shu kabilar bilan ishlash) ni bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otish muhimdir. Kasbga yo'llashning ana shu bosqichida texnika va mehnatga (texnika ijodkorligi va qishloq xo'jalik tajribachiligiga) oid sinfdan tashqari mashg'ulotlar, viktorinalar, o'yinlar katta rol o'ynashi lozim. Bu bosqichda o'quvchilarda ijtimoiy maqsadlarning shakllanishi davom etadi, shu bilan birga kablarga yo'naltirish ham boshlanadi.

Uchinchi bosqich. (asosan VIII-IX sinflarning o'quvchilarini qamrab oladi)
– bu bosqichda o'quvchilar o'z kuchlarini konkret mehnatda tekshirib ko'radilar, o'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishlari va mayllari yanada shakllanadi. O'quvchilar bu bosqichda o'z kasbiy niyatlarini bir muncha umumiy kasblar bo'yicha amaliy ko'nikma va malakalar bilan mustahkamlaydilar. Bu bosqich konkret kasbni tanlash uchun o'zlashtirish yo'llarini belgilash bilan tugaydi. O'quvchilarning turli klublar va qiziqishlar (predmetlar, predmet-texnika, ishlab chiqarish-texnika va shu kabilar) bo'yicha va to'garaklarga ishlashi ushbu bosqich uchun diqqatga sazovordir.

Umumta'lim maktablaridan so'ng o'quvchilarni kasbiy shakllantirish ishlari akademik lisey va kasb-hunar kollejlarida olib boriladi.

I.4. Kasbiy shakllantirishning forma va metodlari

O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish metodlari deganda o'qituvchi, usta va o'quvchilarning birgalikda bajaradigan faoliyat usullari tushuniladi va usullar o'quvchilarning texnik, texnologik bilimlarini, mehnat ko'nikmalari hamda malakalarini egallashlariga, ularda dunyoqarashni shakllantirishga, mustaqil ravishda bilim olish bilan bu bilimlardan amalda foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Fanlararo aloqalar yordamida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish usullarini

Ta'lim-tarbiya birligi, uzviylik, kasbga yo'naltirish talablari va prinsiplarining asosiy mazmuni	Fanlararo, fanlar ichidagi va turkumlararo bog'lanishlar prinsipini amalga oshirishning asosiy usullari
Bilim, ko'nikma va malakalarni bo'lajak ishchi ongiga singdirish ijtimoiy ahamiyat kasb etib, o'quvchilarda kasbiy sifatlarni tarkib toptiradi. Darsning tarbiyaviy maqsadi bilan o'quv materialining mazmuni, ta'limning tanlangan usullari va vositalarini tarkibiy bog'lash o'quvchilarda ijtimoiy-siyosiy yetuklikni, ma'naviy qadriyatlarni tarbiyalashga qaratiladi. Ilmiy-texnik bilimlarni alohida ishlab chiqarish-texnologik birliklar sifatida ham, umuman sanoat ishlab chiqarishi	Mazmun bo'yicha o'rganilgan tushunchalar, hodisalar, jarayonlar, fan va o'quv materialini konspektlashtirish, umumta'lim fanlarining hunar-texnika turkumidagi fanlar va mehnat ta'limi uchun asos bo'lib xizmat qiladigan ayrim mavzularni chuqurroq o'rganish, fan asoslarining qonunlari, hodisalari, jarayonlarini texnik ishlab chiqarish obyektlari va hokazolarga amaliy qo'llash. Ta'lim usullari bo'yicha o'quvchilarning bilimlarini o'zlashtirishdagi amaliy faoliyati, fan asoslarini o'rganish ishining

<p>sifatida ham ifodalaniib, sistemalashgan holda bayon qilish kerak.</p> <p>Uzviylik – bu o’quv materialini mazmunidagi qo’llaniladigan ta’lim metodlari, shakllari va vositalaridagi optimal izchillik. O’quv fanining kurs mavzulari, bo’limlari, shakllangan tushunchalar sistemalari, ta’limning har bir bosqichida o’quvchilar egallagan bilimlar darajasini o’zaro bog’lash asosida o’qitish mantiqiga rioya qilib, o’quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish.</p>	<p>namunalari va algoritmlarini ko’rsatish, muammoli masalalar, topshiriqlar amaliy xususiyat kasb etadigan fan asoslariga oid darslarda tatqiqot usulidan foydalanish va hokazolar. Ta’lim usullari bo’yicha fan asoslariga, umumtexnik fanlarga doir darslarda o’quvchi bajargan mashqlarning natijalaridan foydalanish, ko’rsatmali obyektlarni ixtisoslik bo’yicha sxemalarni kuzatish, o’quvchilarga o’qish usullarni o’rgatish.</p>
<p>Ta’lim-tarbiyaning oldingi bosqichlarda foydalanilgan tashkiliy shakl va usullariga tayanish o’quvchilarga ilgari o’rganilgan bilim, ko’nikma va malakalar sistemasidagi o’rni hamda rolini, shuningdek, ularning kasb-korlikka oid ahamiyatini ko’rsatish.</p>	

Fan, texnika va ishlab chiqarishning taraqqiy etib borishi munosabati bilan mehnat va kasb ta’limi metodlari doimiy ravishda rivojlanib va takomillashib bormoqda. Bu metodlarning rivojlanishi va takomillashuvi ilg’or pedagogik tajribalarning to’planishi, ilmiy metodik tatqiqotlarning kengayib, chuqurlashib borishi asosida didaktik prinsiplarning, mehnat va kasb ta’limi sistemalarining takomillashib borishi bilan o’zaro bog’langan holda ro’y bermoqda.

Kasb ta’limi metodlarini rivojlantirishda, takomillashtirishda dunyo psixologiyalari va fiziologiyalarining, ayniqsa, o’quvchilarda mehnat ko’nikmalari

hamda malakalarini tarkib toptirish, ularning mazmuni, tasnifi sohasidagi, mehnat faoliyatining aqliy jihatlarini, shakllantirishni, hozirgi zamon ishlab chiqarish xodimlari uchun xos bo'lgan ijodiy faollik, tashabbuskorlik va boshqa muhim sifatlarni tekshirish sohasidagi tadqiqotlari muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonining, xususan, o'quvchilar mehnat kasb faoliyatining tezlashuvi xilma-xil maxsus trenajyorlar, ro'yxatga oluvchi va tekshiruvchi qurilmalar ishlab chiqish va ulardan foydalanishni zarur qilib qo'yidiki, bu qurilmalar o'quvchilarning mehnat harakatlarini qayd qilish va ish vaqtida yo'l qo'yiladigan kamchiliklar to'g'risida tezda xabar yetkazish imkonini beradi. O'quvchilarning ana shunday trenajyorlardan va tekshiruvchi qurilmalardan foydalangan holda turli mashqlar o'tkazishi, ayniqsa, mehnat usullarini tarkib toptirishning boshlang'ich bosqichida, mehnat va kasb ta'limining eng muhim metodlaridan biridir.

Kasb ta'limining har bir metodi bir qator metodik usullarni, ularning tarkibiy qismlarini o'z ichiga oladi. Masalan, mehnat jarayonlarini o'rganish jarayoniga quyidagi bir qator usullar kiradi: ish o'rnida gavdani to'g'ri tutishni, asboblarni ushlashni ko'rsatish, harakatni ish sur'atida sekin va qismlarga bo'lingan holda, keyin yana ish sur'atida ko'rsatish usullari kiradi.

Kasb ta'limidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning o'zaro bog'lanishi hamda uzviyligini ifodalovchi o'quv axboroti mazmunidan foydalanish asosida traktorchi ixtisosiga qiziqishni shakllantirish bo'yicha o'qituvchi (usta) o'quvchilarning o'zaro hamkorligi (2 - jadval).

2-jadval

O'qituvchi (usta)ning faoliyati	O'quvchilarning faoliyati
1. O'quv materialini o'quvchilarda tasavvurni rivojlantirish bo'yicha yangilik hisoblanadi.	Axborot o'quvchilarning traktor uzellari va mexanizmlarida ro'y beradigan jarayonlariga qiziqishini oshiradi. Ular ana shu jarayonlardan o'qituvchi aytgan narsalarni, avtomobilda va boshqa texnika turida

	mavjud materiallarning o'zaro bog'lanishini isbotlash yo'llarini izlaydi.
2. O'quv materiali o'quvchilar uchun yangilik bo'lib, ularni fikrlashga majbur qiladi.	O'qituvchi aytgan nazariy qoidalarini o'quvchilar o'zlarining amaliy tajribalari orqali ko'rib chiqadilar: o'zlaridagi mavjud bilim va tajribalar asosida isbotlashga urinadilar. Aniq misollarni tushuntirishga va tahlil qilishga kirishadilar.
3. O'qituvchi tanlagan o'quv materialini o'quvchilarni bu materialni bilib olishga da'vat etadi.	O'quvchilar axborotdan qo'shimcha bog'lanishlar, jarayonlar va hodisalarni topadilar. Keyin diqqat-e'tibor bilan savollarga javoblarni axtarishga qaratiladi.
4. Takrorlash natijasida o'quvchilar uchun oddiy bo'lib qolgan anchagina hayotiy hodisalar, ular uchun tasodifan yangi, butunlay boshqacha eshitiladigan to'la ma'noli hodisalarga aylanadi.	Hayotiy hodisalarni asoslash usullarini izlaydilar: ilmiy tushunchalarni umumlashtiradilar. Voqeya, hodisa va jarayonlarni tahlil qiladilar.
5. O'quv axborotlarida ilmiy kashfiyotlar tarixining yortilishi o'quvchilarni inson aqlining katta imkoniyatlari haqida o'ylashga majbur etadi. Ularning o'qishdan qanoatlanishini oshiradi (barcha o'quv fanlari bo'yicha material to'planadi)	Ilmiy kashfiyotlar tarixi bilan tanishadilar, o'z imkoniyatlari haqida o'ylaydilar: o'zlarining muhim muammolaridan xabardorliklarini tekshiradilar.
6. O'quv axborotida bir fanning boshqa fanlarning rivojlanisht manbai	Bir kashfiyotning boshqa kashfiyotlar uchun asos sifatidagi bog'lanishini

sifatida yutuqlari (kibernetikaning texnikaga, tibbiyotga, tilshunoslikka singib borishi, botanikaning tirik organizmlar tuzilishi qonuniyatlaridan foydalanishi va hokozolar) oydinlashadi.	izlaydilar, turli ilmiy kashfiyotlar hamda fanlarning o'zaro bog'lanishlarini asoslaydilar, olimlarning maqsadga muvofiq sabablari va hokozolarni aniqlaydilar.
7. O'quv materialini o'quvchilarni olgan bilimlaridan turmushda foydalanishiga chorlaydi, bilimning kishilar amaliy faoliyati uchun ahamiyatini anglatadi.	Axborotning turmush bilan, jamiyatimizdagi rivojlanish ishlari bilan bog'liqligini izlaydilar.
8. O'quv materialini o'quvchilarga tor amaliyotchilikdan, hamma narsaga shaxsiy manfaati nuqtai nazaridan yondoshishdan qutulishda yordam beradi	

Shuni ta'kidlash kerakki, mehnat jarayonida umumiy didaktik xususiyatga ega bo'lgan ko'pgina metodlardan foydalaniladi. (3-jadval)

Biroq mehnat usullarini amalda ko'rsatish, ularni bajarishga oid mashqlar, texnikaga oid ma'lumotnoma va texnologik hujjatlar bilan ish olib borish, o'quv – ishlab chiqarish topshiriqlarini bajarish, nazariy – amaliy ishlarni bajarish kabi metodlar faqat mehnat va kasb ta'limiga xos bo'lgan metodlardir. Shuning uchun ham, o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda ana shu fan yuklamasida keltirilgan o'quv soatlarining o'rnini beqiyosdir.

Ta'lim jarayonini tashkil etishda didaktik asoslarga oid metodlarni tanlash.

3-jadval

№	Ta'limning didaktik asoslari	Turli sharoitda foydalaniladigan ta'lim metodlari	
		Maktabda	Kasb-hunar kollejlari
1	Ta'limning	Axborot;	Axborot, yo'l-yo'riq

	umumdidaktik metodlari	Reprodiktiv; Muammoli bayon qilish	berish; Reproduktiv; Qisman izlanish; Tadqiqot va hokazolar;
2	Ta'limning xususiy-didaktik metodlari	Og'zaki bayon qilish; Darslik bilan ishlash Namunaviy masalalarni hal qilish;	Og'zaki bayon qilish; Darslik va texnik adabiyotlar bilan ishlash; Mustaqil topshiriqlarni bajarish
3	Metodlarni amalga oshirish vositalari	Darslik; Jadvallar, sxemalar; Ta'limning texnik vositalari; Haqiqiy mashina va asboblarning medellari, maketlari;	Darsliklar va o'quv qo'llanmalar; Texnika oynomalarining materiali; Ta'limning texnik vositalari va kompyuter texnikasi; Shoshilinch axborot; Normativ hujjatlar va hokazolar.
4	Metodlarni amalga oshirish shakllari	Jadvallar, sxemalarni tuzish; Qiyosiy tahlil; Muammoli savollar qo'yish; Muammolar va ularni hal qilish; Mashg'ulot natijalarini tahlil qilish	Kompyuter texnikasi uchun dasturli ta'limni tashkil qilish; Umumiy va o'ziga xos prinsiplarni aniqlash; Masalalarni qo'yish va muammoli hamda ta'lim metodlari bilan hal qilish; Farazlarni olg'a surish; Bajarilgan ish natijalarini yoqlash va hokazolar.

II-BOB. MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBIY ShAKLLANTIRISH

II.1. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish mohiyati

Yoshlarni kasbiy shakllantirish ishlariga katta e'tibor qaratish, kelajakda malakali kadrlar yetishib chiqishining garovidir. Shundan kelib chiqadiki, respublikamiz yoshlariga kasb ta'limi berish tizimining tubdan isloh qilinishi mamlakatimiz ertasini ko'zlab qilinayotgan tadbir hisoblanadi. Tadbirdan ko'zlangan maqsadga erishish bilan mamlakatimiz ulkan yutuqlarga erishishi muqarrardir. Chunki barcha yurtlarni ham yurtning poydevori va kelajagi respublikada mavjud yoshlarning yuksak salohiyati, metin irodasi, kasbga sadoqatliligi, yetuk mutaxassis kadrlar ekanligi bilan belgilanadi. Shunday ekan, mazkur bitiruv ish ham shu kunning va qolaversa, barcha davrlar uchun ham muhim bo'lgan dolzarb masalaga bag'ishlanganligi shubhasiz.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim negizida o'qish muddati uch yil bo'lgan majburiy o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi uzluksiz ta'lim tizimidagi mustaqil turidir. Umumta'lim maktabini bitirgan har bir o'quvchi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishida akademik lisey yoki kasb-hunar kollejida kasblarni ixtiyoriy ravishda tanlab, ma'lum bir kasb egalari bo'ladi, kasbiy xislatlari shu dargohda shakllanadi.

Kasb-hunar kolleji tegishli davlat standartlari doirasida o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi beradi, bunda asosan quyidagilar nazarda tutiladi.

- a) o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi;
- b) bilim ko'nikmalarini chuqurroq rivojlantirish;
- v) tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini beradi.

Kasb-hunar kollejlari jihozlanganlik darajasi pedagogik tarkibning tanlanganligi, o'quv jarayonining tashkil etilishi jihatidan yangi tipdagi ta'lim muassasalari hisoblanadi. Ular bir yoki bir necha zamonaviy kasb-hunarni egallash

hamda tegishli o'quv fanlaridan chuqur nazariy bilimlar olish imkoniyatini yaratadi.

Kasb-hunar kollejining bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Bu diplomlar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallagan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beradi. Bu respublikamizda kasb ta'limining yangi tizimini tashkil qiladi. Uch yillik o'quv davrida o'quvchilarning kasbiy xislatlari imkon darajasida yuksaltiriladi. Kasb-hunar kollejini bitirib, o'z sohasi bo'yicha yaxshi kadr bo'lib yetishgan o'quvchilar, oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirmasdan, ishlab chiqarish sohalarida xizmat ko'rsatishlari mumkin.

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish va rivojlantirish uchun quyidagilar zarurdir:

a) Kasb-hunarlari faoliyat ko'rsatishi normativ bazalarini o'rganish va ishlab chiqarishga joriy qilish.

b) Kadrlarni qayta tayyorlash.

v) O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv davlat standartlari ishlab chiqish va joriy etish.

g) O'rta maxsus o'quv muassasalari uchun ta'lim va kasb-hunar dasturi, o'quv uslubiy majmualar ishlab chiqish.

d) Kasb-hunar kollejlarida tayyorlanadigan mutaxassislar ro'yxatini ishlab chiqish.

z) Hududning jug'rofiy joylashish holatini hisobga olish, moddiy texnika bazalarini, kasb-hunar ta'limini mustahkamlash.

O'quvchilarni kasbiy shakllantirishning mohiyati shundaki, ularga puxta bilim berish bilan birga ularni respublikamiz uchun yetuk mutaxassis kadrlar qilib qilib tarbiyalash, xalq maorifi xodimlari oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu masalani har tomonlama ijobiy hal etishda maktablarda kasb tanlashga yo'llash ishlarini DTS asosida olib borish muhim hisoblanadi.

Bizning kuzatishlarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, dars jarayonida o'quv rejasida ko'zda tutilgan materiallarni bayon etish jarayonida o'quvchilarga

kasblar haqida tushunchalar berish borishning ahamiyati kattadir. Shuning bilan bir qatorda sinfdan tashqari tashkil etilayotgan mashg'ulotlar ham hozirgi zamon talablari darajasida olib borilsa, o'quvchilar kasblar haqidagi tasavvur va ma'lumotlarni keng qamrovli hamda chuqur anglab yetadilar.

Haqiqatdan ham yoshlarimizga zamon talablari asosida kasbiy shakllantirish, shu jarayonni amalga oshirish davomida kasblar va bu kasb egalari haqida o'quvchilarga dastlabki ma'lumotlarni berib borish bilan yoshlarni kasb-hunarga yo'llash zarurdir. Chunki, kelajakda mamlakatimizning barcha sohalarida faoliyat olib borishi mumkin bo'lgan ishchi-xodimlarning bilimi, salohiyati, demakki, mamlakatning iqtisodiy, siyosiy hamda bosha sohalar bo'yicha rivoji ham umumta'lim maktablarida olib borilayotgan kasb tanlashga yo'llash ishlarining tashkil etilishiga bog'liqdir.

II.2. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda kasbga yaroqlilik tamoyillari

Kasbga yaroqlilikni kasb tanlashga yo'llash ishining butun sistemasida yakunlovchi bosqich deb atash mumkin. Ana shunday bosqichda ishchi va xodimning tanlagan kasbga mos yoki mos emasligi aniqlanadi. Bu masalani ijobiy hal etish nafaqat o'quvchining kelajagi balki, mamlakatning kelajagi uchun ham muhim hisoblanadi.

Ammo kasbga yaroqlilik metodlari faqat kasbga yo'llashning yakunlovchi bosqichida qo'llash maqsadga muvofiq bo'lmaydi deb o'ylaymiz. Dastlabki tibbiyot, jismoniy va psixologik tekshiruvlardan o'tmay turib, u yoki bu kasbni egallash yosh o'quvchiga salbiy ta'sir ko'rsatish ehtimoldan holi emas. Masalan: rangni farq qilmaydigan kishiga shofyorlik va boshqa transportlarni boshqarish uchun haydovchilik, rassomlik kabi kasblar to'g'ri kelmaydi. Bunday holda o'qish, o'rganish uchun sarflangan vaqt va mablag' bekor ketadi.

Vaholangki, kasb tanlashdan avval vrach, psixolog, konsultant bilan suhbatlashilsa, bunday hollarga yo'l qo'yilmaydi. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda ham ushbu ma'lumotlar katta ahmiyat kasb etishi shubhasizdir.

Shunday qilib, kasb tanlashga yo'llashning tarkibiy qismlaridan biri sifatida kasbga loyqlikni ishning boshlanish bosqichida ham, shuningdek yakunlash bosqichida ham tekshirib ko'rish lozim. Chunki kasb tanlashgacha o'tkazilgan tekshirishdan to kasbni o'zlashtirib olgandan keyin ham kishi sog'ligida muhim o'zgarishlar ro'y berishi mumkin. Shuning uchun ham kasbga yaroqlikning yakunlovchi bosqichi zarur. Shularni nazarda tutib, sinf rahbarlari va vrachlar ot-onalar bilan birgalikda bolalarni muntazam ravishda kuzatib borishlari lozim. Bu kuzatishlarning natijalari har bir maktabni bitirib chiqayotgan o'quvchilari uchun tuziladigan psixologik-pedagogik va tibbiy tavsifnoma bo'la oladi.

Lekin kasbga yaroqlilik bu biror kishining muayyan kasbga oid mehnat funksiyasini bajarishga yaroqli-yaroqsizligini ta'kidlashga emas, balki unga uch jihatdan yondashish lozim.

1. Kishi tanlagan kasbiga yaroqli-yaroqsizligi;
2. Hayot yo'lini tanlashda u nimaga tayanishi lozim?
3. Qanday qilib kasbni yaxshiroq o'rganish, ya'ni kasbga yaroqlilikni qanday qilib maqsadga muvofiqroq shakllantirish, tarbiyalash va rivojlantirish.

Boshqacha qilib aytganda, biror kasbni egallashga intiluvchi kishilarda tibbiy ko'rsatmalar bilan birga muayyan psixologik moslik ham shakllanishi lozim. Bu esa diqqat, tafakkur, iroda, shuningdek, ma'naviy-psixologik xususiyat singari psixik funksiyalarning rivojlanishi bilan bog'liq bo'ladi. Kasbga layoqatlilik keng tushuncha bo'lib, uning mohiyati shundaki, har bir o'quvchining individul qobiliyati, qiziqishi, layoqati, biror kasbga nisbatan intilishi bo'ladi. Mehnat ta'limi darslarida o'qituvchi o'quvchilarning ana shunday xislatlarini sezishi hamda shundan xulosa chiqargan holda uni kasbiy shakllantirishi lozim.

Ba'zi hollarda o'quvchilar maktabni bitirib lisey yoki kasb-hunar kollejida, kasb-hunar kolleji va liseyni bitirib oliy o'quv yurtida o'z ixtiyori, kasbiy layoqati, qobiliyati, yaroqliligi bilan emas, balki, ota-onasi, do'stlari, qarindoshlari, boringki, biror insonning qistovi yoki maslahati bilan o'qishni davom ettiradilar. Natijada u mutaxassis sifatida kasbini sevmaydigan kadr, yaxshi xodim bo'lsada, qobiliyatsiz ishchiga aylanib qoladi. Endi aytingchi, undan na oila, na jamiyat va na mamlakatga foyda keladi.

Shunday qilib, kasbga yaroqlilik o'qish-mehnat faoliyatida shakllanuvchi shaxsiy xususiyat hisoblanib, unga jiddiy e'tibor qaratish lozim. Unga insonning kasb talablariga mos keladigan tug'ma yoki egallangan (o'zlashtirilgan) psixologik xususiyati deb qarash mumkin emas. Faqat ayrim kasblar (musiqachi, haydovchi, rassom) uchungina ma'lum tabiiy ma'lumot talab etiladi. Ko'pincha kasbga yaroqlilikning shakllanishi muayyan vaqtda rivojlanadigan faoliyat yuz beradi.

Shuning uchun psixologlarning vazifalari o'quvchini ma'naviy va moddiy rag'batlantirishni to'g'ri tashkil etib, unda ijtimoiy-foydali kasbga qiziqishning

paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatishi va shu bilan o'quv hamda mehnat faoliyatiga yaroqlilikning shakllanishiga imkoniyat yaratishdan iborat.

Ishlab chiqarishni malakali kadrlar bilan ta'minlash, ya'ni ularda tanlangan kasbga yaroqlilikni shakllantirish uchun ijtimoiy kasbda ilgari siljish bosqichlarining ma'lum bir miqdorini ishlab chiqish zarur. Binobarin, bu ishchilarga 2-3 yilga emas, balki doimo yuksak ma'naviy va moddiy rag'batlantirish bilan quvvatlanadigan juda uzoq muddatga mo'ljallanishi lozim.

Shunday qilib, o'smirning qanday kasbga yaroqliligi masalasini hal etishda kasb tanlashga yo'llash va konsultasiyaga murojaat qilish zarur, chunki inson kasbga emas, balki kasb insonga mos kelishi lozim.

O'smir o'z sog'ligi, qobiliyati va moyilligiga qarab ancha maqsadga muvofiq mehnat turini tanlaydi. Tibbiyot xodimlari o'smirga uning sog'ligiga mos keladigan kasbni tanlashda yordam beradi.

II.3. O'quvchilar kasbiy xislatlarini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati

O'smir hisoblangan to'qqizchi sinf o'quvchisi o'z mayllarini va mehnatga bo'lgan qiziqishlarini ozmi – ko'pmi aniq belgilab olishi lozim.

Maktab yosh avlodga barvaqt kasb – hunar o'rgatish prinsipini rad etib, o'quvchilarning shaxsiy iste'dod nishonalari va qiziqishlarini har tomonlama rivojlantirishga intiladi, maktab o'quvchilarida jamiyatga naf keltiradigan faoliyatga qiziqishini, kasb tanlashga tayyorlash uchun negiz bo'lib xizmat qiladigan qiziqishni tarbiyalaydi. Bu esa mehnat tarbiyasining eng muhim vazifalaridan biri bo'lib, o'quvchilarni kasbiy shakllantirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Darhaqiqat, maktab o'smirlarining shaxsiy qiziqishlari, iste'dod kurtaklari va qobiliyatlarini shakllantirishga qaratilgan xilma-xil ishlarni tashkil qilib, bola shaklini har tomonlama rivojlantirishga ko'maklashadi, sevimli ishini aniqlab olishga yordam beradi. Xo'sh, maktab o'quvchilarning kasb–korlik masalarini muvaffaqiyatli hal qilish uchun barcha zarur ma'lumotlarni bera oladimi, har o'quvchida kasb tanlash muammosiga puxta o'ylab munosabatda bo'lish his-tuyg'usini tarbiyalay oladimi, shu muammoni hal qilishning to'g'ri yo'llarini ko'rsatib bera oladimi?

Afsuski, hozirgi vaqtda ko'pgina maktablar ana shu vazifani eplay olmayaptilar. To'qqizinchi sinflarning o'quvchilarigina emas, balki lisey va kasb-hunar kolleji bitiruvchilari ham kasb tanlash masalasiga ko'pincha chuqur o'ylab, jiddiy munosabatda bo'lmayaptilar. Ko'pgina maktablarda «Men kim bo'lmoqchiman?» mavzusida o'tkazilgan anketa so'rovnomalarida hamda boshqa vositalarda iste'dod mavzusida davom etayotgan munozara shundan dalolat bermoqda.

O'quvchilarning qaytargan javoblarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularning kelgusida egallashi mumkin bo'lgan kasblari sinfdan – sinfga o'tishlari bilan o'zgarib turadi. Bu shundan dalolat beradiki, o'sha maktabda o'quvchilarga kasblar haqida yetarlicha bilimlar berilmagan, o'quvchilarning kasbiy xislatlari ularning layoqati, qobiliyati, qiziqishini hisobga olgan holda shakllantirilmagan.

Ko'pincha o'quvchi o'zining fiziologik, psixologik yoki aqliy imkoniyatlariga tamomila mos bo'lmagan kasb to'g'risida orzu qiladi. Shunday hollar ham bo'ladiki (bunday hollar kam emas), maktab o'quvchisi kelgusida kim bo'lishini umuman bilmaydi, buni oldindan o'ylab ham ko'rmagan.

Biroq, o'smirning «Men kim bo'lishni xoxlayman?» degan savolga qaytargan javoblari qanchalik xilma-xil bo'lmasin, boshqa bir narsa orzu qilayotgan kasblar to'g'risida ularning g'oyat noaniq tasavvuri va kelgusidagi mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan o'z burchlari haqida muayyan tasavvurga ega emasliklari ma'lum bo'lmoqda.

Ko'pgina o'quvchilar o'z insholarida bo'lg'usi kasbga tayyorgarlik ko'rish borasida hozircha hech bir ish qilmayotganliklarini oshkora yozmoqda. Ularning ba'zilari u yoki bu kasbga tayyorgarlik ko'rish uchun umuman nima qilish kerakligini aytib o'tishga urinadilar.

Ammo shunday o'quvchilar ham borki, ular u yoki bu kasb to'g'risida orzu qilibgina qolmay, balki bu haqda ko'p narsalarni bilishga ham intiladilar, shu kasb bilan bog'liq bo'lgan kitoblarni o'qiydilar. Biroq, ular zarur adabiyotni ko'pincha tanlab olishni bilmaydilar va tasodifiy kitoblarni o'qiydilar, ular o'qigan chog'larida nimalarga e'tibor berish kerakligini bilmaydilar.

Chunonchi, ularning ba'zilari insholarida ko'p kitob o'qiyotganliklarini umumiy tarzda bayon qiladilar, boshqalar esa «barcha fanlarga oid» yoki muayyan fan bo'yicha, masalan, fizika, kimyoga doir adabiyot o'qiyotganliklarini yozadilar.

Ko'pgina o'quvchilar turli xil kasblar bilan tanishishni, shu kasblar haqidagi adabiyotlarni o'qish bilan cheklaydilar, mazkur faoliyatga bo'lgan o'z qobiliyatlari va qiziqishlarining barqarorligini tekshirib ko'rish uchun maktabda shunga o'xshash narsalar bilan shug'ullanishga urinib ko'rmaydilar, u yoki bu kasb uchun zarur bo'lgan o'z qobiliyatlarini qanday qilib rivojlantirish va boshqarish kerakligini bir tomonlama, sodda tasavvur qiladilar.

Biroq shunday o'quvchilar ham borki, ular bo'lg'usi kasb to'g'risida ko'proq narsalarni bilishga harakat qilib qolmay, balki unga amaliy tayyorgarlik

ko'rishga ham urinadilar. Bunday o'quvchilar turli to'garaklarda, xilma-xil ijtimoiy foydali ishlarda qatnashadilar.

Bayon etilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'quvchilar kasb tanlashda yetarli bilimga ega bo'lmagan yoki o'qituvchilar tomonidan o'quvchilarni kasbiy shakllantirish to'g'ri yo'lga qo'yilmagan holatlarda kasb tanlash yuzasidan muammolar kelib chiqmoqda. Xo'sh o'quvchilarning kasb tanlashdagi xatolari nimalardan iborat.

1. *O'quvchilar u yoki bu kasbdagi odamga munosabati kasbning o'ziga bo'lgan munosabati bilan bir xil deb qarash.* Muayyan odam, uning yuksak ma'naviy hislatlari, aql-farosati, dadil ishlari o'quvchiga ma'qul bo'ladi. Bunday qoyil qolish beixtiyor sevimli qaxramon shug'ullanayotgan ishga ham o'tadi. Binobarin, o'smir unga taqlid qilish yo'lidagi muddaosida qandaydir axloqiy xislatlardagina unga o'xshash bo'lishni emas, balki o'zini ham ana shu kasbga bag'ishlashni istaydi. Bunda o'quvchi o'sha ma'naviy fazilatlar boshqa kishida ham namoyon bo'lishi mumkinligi haqida o'ziga ko'pincha hisob bermaydi.

2. *O'quv fanini kasb bilan bir xil deb tushunish.* O'smir maktabdagi fanlarni o'zlashtirishdagi muvaffaqiyatlariga asolanib, ko'pincha bo'lg'usi kasbni belgilaydi. O'quvchiga adabiyot yoqib qolgan bo'lsa, bu u adabiyotni amaliy jihatdan qo'llanilishi bilan bog'liq bo'lgan kasblar to'g'risidagi tasavvurga ega bo'lmasa ham adabiyot mening sevgan fanim, deydi. U kasbni emas, balki bilimning o'zini qiziqtiruvchi sohasini tanlaydi, bu sohada nimani istayotganligini va nima qilishi mumkinligini mutlaqo tasavvur qilmaydi.

3. *Kasbning tashqi jihatdan birgina qiziqish.* O'smirlarning romantika bilan yo'g'rilgan kasblar qiziqtiradi. Ular uchuvchi, geolog, ixtirochi bo'lishni orzu qiladilar. Bu – mutlaqo tabiiy hol albatta. Lekin o'quvchilar ko'pincha o'zlarini qiziqtirayotgan kasblarning faqat romantik jihatlarinigina ko'rib, shu kasblarga xos bo'lgan qiyinchiliklarni bilmaydilar.

4. *Mehnatning aqliy mazmuni va ba'zi kasblarda, ayniqsa oilaviy kasblarda o'sish imkoniyatlari haqidagi noto'g'ri tasavvurlarning mavjudligi* navbatdagi kamchilikdir. Yoshlarimiz, odatda yengil yo'llarni qidirmaydilar, balki ma'naviy

xislatlarni, qobiliyatlarni, mahoratni rivojlantirish mumkin bo'lgan joylarda ishlashga harakat qiladilar. Bu esa juda soz, albatta. Lekin ayni shu sababdan maktab o'quvchilari jamiyatga zarur bo'lgan kasblarga ijodiy, aqliy jihatdan o'sish uchun yetarli darajadi imkoniyat bermaydi, deb ana shunday kasblarni ko'pincha e'tiborsiz qoldiradilar.

5. *O'z qobiliyatlariga to'g'ri baho bera bilmaslik.* O'quvchi biron ishni ado etish uchun o'zida ko'proq qanday qobiliyat borligini ko'pincha aniqlay olmaydi, maktab esa bu borada unga kam ko'maklashadi. Biroq hamma joyda uning oldida hamma yo'llar ochiq ekanini, hammadan ko'ra ko'proq qiziqarli bo'lgan narsalarni qilish lozimligini unga ta'kidlaydilar. Shu boisdan kasbni umuman u tanlaydi: o'z xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olmay, ko'proq yoki kamroq yoqadimi, baribir ma'lum kasbni tanlab oladi.

6. *O'quvchilarning u yoki bu kasbga zid bo'lgan o'z jismoniy xususiyatlari va nuqsonlarini nazar – pisand qilmaslik.* Masalan, mayda ish (soat zavodida, aniq asboblari zavodida va shu kabi joylarda) bilan bog'liq kasblar uchun ko'rish organining zaifligi, transportda ishlash uchun to'g'ri kelmaydigan daltonizm xastaligi, o'smir geolog bo'lishni xoxlasa ham lekin yuragining zaifligi, radiolokasiyada ishlashni tanlagan yoshlarning eshitish borasidagi kamchiligi, dengizda suzish va yerdagi transportning ba'zi turlarini va shu kabilar ana shunday kamchiliklar jumlasidandir. O'smirlar o'zlari tanlagan kasblarga to'g'ri kelmaydigan bu nuqsonliklarini bilmasliklari oqibatida mos bo'lmagan kasblar bo'yicha ishga yoki tegishli o'quv yurtlariga qabul qilmaganliklarida juda ham xafa bo'ladilar, tushkunlikka tushadilar.

7. *O'rtoqlarining ta'siri bilan kasb tanlash.* O'quvchi o'z istaklarini ro'yobga chiqarishini o'ylab ham ko'rmagan bir paytda uning sinfdosh o'rtoqlari kasb tanlash haqida fikr yuritadilar. O'quvchi bunda o'rtoqlaridan ajralib qolishni xoxlamaydi, chunki ularning orzulari yorqin, jozibalidir. Shu tariqa o'quvchi «men ular bilan birga bo'laman, chunki menga baribir» deydi. Keyinchalik esa u qiynala boshlaydi, azob chekadi: noto'g'ri kasb tanlaganiga pushaymon bo'ladi, o'zini qiziqitirmagan, o'ziga yoqmagan kasbda ishlayotganidan xafa bo'ladi.

8. *Ta'sodifiy sabablar ta'siri ostida kasb tanlash.* Ba'zan o'smir mexanika zavodi xonadonimizga yaqin bo'lgani uchun slesar bo'lib ishga kirdim, deydi. Ammo o'zi kasbni unchalik yoqtirmaydi. Pedagogika bilim yurtiga kirishga konkurs uncha katta bo'lmaganligi uchun o'sha bilim dargohida o'qishga qaror qildim, deyishadi ayrim yoshlar. Biroq ular o'qituvchi bo'lishni xayollariga ham keltirmagan bo'ladilar. Ba'zan yigit yoki qiz, laborant bo'lib ishga kirdim, chunki tanishlarim yordam qildi, deyishadi. Lekin bu ishning o'ziga manzur bo'lish – bo'lmashligini sira ham o'ylashmaydi.

O'quvchilarning yetarli darajada tajribaga ega bo'lmaganliklari va o'qituvchilarning kerakli, malakali yordam bermaganliklari oqibatida kasb tanlashdagi bunday xatoliklarining oldini qanday qilib olish mumkin.

Bunga faqat bir xil javob berish mumkin: bu borada o'qituvchilar, katta yoshdagi kishilar fikrlarini bir maqsadga qaritib, yoshlarga muttasil, malakali yordam berishlari kerak. O'smirlar esa ana shu yordamga tayanib, kelgusidagi hayot yo'li to'g'risidagi masalani mustaqil hal qilishlari lozim. Umumta'lim maktablari, lisey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarni kasbiy shakllantirish quyidagi asosiy vazifalarini nazarda tutish kerak.

- o'quvchilarda kasb tanlash malakasiga nisbatan jiddiy va mas'uliyatli munosabatda bo'lishni tarbiyalash;

- O'smirlarning qiziqishlari va qobiliyatlarini, fiziologik va psixologik xususiyatlarini hamda imkoniyatlarini o'rganish. Har bir o'quvchi o'z hayotini bag'ishlashni istaydigan faoliyat sohasini belgilab olishga unga yordamlashish;

- o'quvchilarni xalq xo'jaligining asosiy kasblari bilan sekin – asta tanishtirish, ularda asosiy kasblarning sohibi bo'lgan odamlar faoliyatining xususiyatlari to'g'risida to'g'ri tasavvurlarni shakllantirish, hozirgi vaqtda davlat, viloyat, tuman g'oyat muhtoj bo'lgan ommaviy kasblarga katta qiziqish uyg'otish lozim. Buning uchun har bir o'quvchini qiziqtiragan kasb bilan chuqur tanishtirish, tanlab olinadigan mehnat sohasida muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur bo'lgan malaka va hislatlarni hosil qilish, shu kasbga barqaror qiziqishni, tanlangan

faoliyatga o'xshash bo'lgan ishda o'z imkoniyatlarini maktabdayoq tekshirib ko'rish istagini tarbiyalash yuzasidan puxta ishlashni tashkil qilish zarur.

Yangi iqtisodiy tafakkur hukm surgan hozirgi sharoitda kasbga yo'naltirishda tarbiyaviy yondashuvning asosiy xususiyati va bu sohada olib borilayotgan ishni umuman shaxsni shakllantirish ishining bir qismi deb hisoblash kerak. Darhaqiqat, kasb tanlash real voqeyelikdan ajralgan tasodifiy faoliyat emas. Yigit va qizning qanday qarorga kelishi va bu qarorni qanday qabul qilishi ko'pgina omillarga jamiyatning kadrlarga bo'lgan talab, ehtiyojlari muhimligiga, mazkur joyda ish kuchiga bo'lgan talablarga va ish sharoitlariga, xalq xo'jaligi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan o'quv yurtlarining mavjudligiga va ularda tanlovlarning kattaligiga bog'liq.

Shaxsning xulq-atvori uchun bo'ladigan uni fazilati va xususiyatlari birdan namoyon bo'lmaydi va o'zidan-o'zi vujudga kelmaydi. Odatda, bu fazilatlar va xususiyatlar shaxsning uzoq vaqt davomidagi kamoloti mahsuli, ta'lim-tarbiya sharoitida shaxs faoliyatining natijasidir. Kasb tanlash bundan mustasno emas. Kasb tanlash ham shaxsning bundan oldingi butun kamol topishi bilan tayyorlangan. Shaxsning shakllanishi natijalari uning kasb tanlashga qanday yondashishiga ta'sir o'tkazadi. Binobarin, kasbga yo'naltirishni o'quvchilarga ta'lim va tarbiya berishdan iborat umumiy ishdan tashqari ko'rib chiqish yaramaydi. Kasbga yo'naltirish maxsus vazifa deb qaralgan bo'lsa ham, unga ayrim «tadbirlar» deb qarash mumkin emas. Kasb tanlashga tayyorgarlik masalasini maktab o'quvchilariga ta'lim-tarbiya berish jihati deb qarash kerak.

Shu nuqtai nazardan, kasbga yo'naltirishni yoshlarning faqat kasbiy qobiliyatlarini aniqlash va qobiliyatlari bo'yicha kasb tanlashda ularga yordam berishga qaratilgan faoliyat deb hisoblash noto'g'ri bo'lar edi. Kasb tanlashda qobiliyatlarning muhim rol o'ynashini hyech kim inkor qila olmaydi, lekin bunda shaxsning boshqa jihatlarini ham nazarda tutish lozim.

II.4. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda kasb konsultasiya ishining maqsad va vazifalari

O'quvchilarga kasb konsultasiyasi berishdan maqsad, ishlab chiqarish va malakali kadrlar yetkazish masalalari bilan tanishtiribgina qolmay ular tashxisining yakka tartibdagi psixologiyasi asoslari, qiziqishi, moyilliklari bilan yaqindan tanishib to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatishni nazarda tutadi.

Kasb ta'limi o'quvchilarga har xil kasb turlari, uni egallash usullari, o'quvchilarni qiziqtirish masalalari bilan tanishtiradi.

Kasbga doir konsultasiyalar tashkil qilishda xatosiz kasb tanlashda yoshlarga yordam berish, yosh inson qobiliyatini yanada to'laroq rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish asosiy vazifa qilib qo'yiladi.

Kasbga doir konsultasiya maktabni bitiruvchi sinflar bilan o'tkaziladigan bir martalik suhbat xarakterini olib qolmay, balki shartli bosqichlarga bo'lingan holda ta'limning barcha davrlari mobaynida o'tkazilib turilishi kerak.

Chunonchi, birinchi bosqichda (kasbni tushuntirish jarayonida, ya'ni kasb tanlashga tayyorlash davrida) kasbga doir konsultasiya ishtiyoq va qobiliyatning rivojlanishi bo'yicha yo'naltirilgan ishlarni tanlashda o'quvchilarga yordam berishga, o'quvchi shaxsiy xususiyatlarini o'rganish asosida kasbga qiziqishni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Shunday qilib kasbga tayyorlash konsultasiyalari faqat kasbga qiziqish bo'yicha ishlarni emas, balki shaxsning shakllanishini ham nazarda tutadi.

Ikkinchi bosqich (ya'ni korreksion) o'quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanishi, kasbga qiziqishi va qobiliyati, mazkur kasbga qanchalik tayyorgarligi, sifati darajasi sog'ligi haqidagi omillarni hisobga olgan holda professional tayyorgarlik ko'rish yo'li va aniq kasb tanlash bilan bog'liqdir.

Uchinchi bosqichni kasbga oid konsultasiyaning yakuniy bosqichi deb aytish mumkin. Bu bosqich o'quvchilarning bitirish oldidan fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari, maktabning kasbga oid komissiyasi, kasb tanlashga yo'llash kabineti,

korxonalarning vakillari, o'quv yurtlari va ishga joylashish bo'yicha idoralarning xodimlari tomonidan o'tkaziladi.

Uchinchi bosqichda kasb tanlashlarga aniqlik kiritish hamda o'quvchilarning kasb tanlashdagi xatolarini tuzatishdan iborat aniqlovchi konsultasiya amalga oshiriladi. Kasbga oid konsultasiyaning bu turi, odatda, sobiq o'quvchilar korxonada ishlayotgan yoki o'quv yurtida o'qiyotgan vaqtida o'tkaziladi.

Xulosa

Mamlakatimizning mustaqillikka erishganiga mana o'n sakkiz yo'l bo'ldi. Shu davrlar ichida davlatimiz rahbari qator ma'ruzalarida yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash haqida bot-bot ta'kidlab kelmoqdalar. Prezidentimizning quyidagi fikrlarini keltirib o'tishni joiz deb bilaman: «Farzandlarimiz bizdan ko'ra kuchli, dono, bilimli va albatta baxtli bo'lishlari shart». Ushbu g'oyaning zamirida nafaqat katta fikrlar mujassamlashganligini anglab turgan bo'lsangiz kerak.

Bu fikrlar nafaqat o'qituvchilarga, balki, barcha katta yoshdagi insonlar zimmasiga ulkan masuliyatni yuklaydi. Kelajak yoshlar, hozirgi ajdodlardan ko'ra bilimli, baxtli yashashlari uchun, ularning ma'naviy, madaniy, ilmiy, axloqiy poydevorlarini hozirdanoq qo'yib borish talab etiladi. Bu muammolarni hal qilish, masalaning yechimini topish uchun esa yoshlarga berilayotgan tarbiyaviy-ta'limiy, diniy-dunyoviy bilimlarni ijobiy tarzda singdirib borish zarur. Ularning aynan kasbiy xislatlarini, u qaysi kasb bo'lishidan qat'iy nazar, muttazil shakllantirib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqoridagi bob va bo'limlarda ta'kidlab o'tilgan fikrlardan xulosa sifatida biz olg'a surmoqchi bo'lgan g'oyalar quyidagilardan iborat:

- umumiy o'rta ta'lim maktablari, lisey va kasb-hunar kollejlarida o'qitilayotgan mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarga kasblar haqida muntazam bilimlar berib borish;
- o'quvchilarning kasbiy qiziqishlari bilan hisoblashish;
- ularning kasbiy layoqati, qobiliyati, yaroqliligini aniqlash va shu ma'lumotlar asosida kasbiy xislatlarini shakllantirish;
- nafaqat maktab, lisey, kasb-hunar kolleji jamoasi balki, oila, mahalla jamoasini ham bu muammolarni ijobiy hal qilishga undash zarur, toki yoshlarda kasbiy xislatlarni to'g'ri shakllantirish, kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishining garovidir.

Yana shuni qo'shimcha qilishimiz lozim, o'quvchilarning kasbiy xislatlarini to'g'ri shakllantira olmas ekanmiz, kelajakda malakali ishchi, bilimdon ustoz, mohir hunarmand, qo'ligul naqqosh, o'z kasbning ustalari bo'lgan shifokor,

muxandis, rassom, quruvchi, tikuvchi, qo'yinkki tayanli kadr olishga umid qilmasligimiz lozim. Bu esa mamlakatimizni muqarrar inqirozga yetaklaydi, xorijiy davlatlarning «tadbirkor» lari qo'lida «qo'g'irchoq» bo'lib qolishga zamin yaratib beradi.

Shunday ekan, biz ko'rib o'tgan mazkur mavzu har davrda dolzarb bo'lgan masalaga bag'ishlandi. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini aynan mehnat ta'limi darslarida shakllantirib borish, yuqorida zikr etilgan noxush vaziyatning oldini oladi. O'quvchilarda kasbga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish, shu kasb orqali yurtimiz poydevorini mustahkamlashi mumkinligini doimo uqtirib borish va shunga da'vat etib turish lozim. Ana shunda O'zbekistonning buyuk kelajagini quradigan yetuk malakali kadrlar yetishib chiqadi. Bularning asosida esa, o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishdek ulkan vazifa yotganligi kundek namoyon bo'lib turibdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalash, u tug'ilgandan amalga oshirilib borilishi shart. Kelajakda u shaxs sifatida davlat, jamiyat va oilada o'zining barqaror o'rniga ega bo'lib, o'z yaqinlari, oilasi, mahallasi, tumani, viloyati, qo'ying-ki mamlakati uchun xizmat qila oladigan, ularning dardiga darmon bo'ladigan, og'irini yengil qiladigan inson bo'lib yetishishida kasbiy xislatining shakllanganligi muhim omillardan biri bo'lib hisobladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. «Barkamol avlod O'zbekiston kelajagining poydevori» Toshkent 1997 yil.
2. Karimov I.A. “O'zbekiston buyuk kelajak sari”. Toshkent., “O'zbekiston”. 1998 yil.
3. I.A.Karimovning 2000 yil 6 apreldagi Respublikamiz olimlari, shoirlari, yozuvchilari bilan “Yoshlarimiz ongida milliy, ma'naviy mafkurani shakllantirish” maqsadidagi uchrashuv.
4. Vorobyev A.I. “Mehnat ta'limi va kasb tanlashga yo'llash metodikasi”. Toshkent. “O'qituvchi”. – 1987 yil.
5. Txorjevskiy A.D. «Mexnat ta'limi metodikasi». Toshkent. O'qituvchi 1990y.
6. Davlatov K., Mag'zumov P.T. «Mexnat va kasb tanlash nazariyasi hamda metodikasi». Toshkent. O'qituvchi 1990y.
7. Magzumov P.T., Antonov A.F., Surayev A va boshqalar. “O'quvchilarni mehnat va kasb tanlashga tayyorlash”. Toshkent. “O'qituvchi”. 1991 yil.
8. Vorobyev A.I. “Mehnat politexnika ta'lim didaktikasi”. Toshkent. “O'qituvchi”. 1997 yil.
9. Ruvinskiy L.I. Tarbiyaviy ishlar metodikasi. -T.: O'qituvchi, 2000.
10. Yo'ldoshev J.G'. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. -T.: Sharq, 2000.
11. Xo'jayev N. va boshqalar. Ta'lim nazariyasi. 2003.
12. Voljskiy A. Metodika vospitatelnoy raboty s molodejyu. -M.: 2003.
13. Kotov V. Vospitatelnaya rabota v shkole: opyt i problemy. - Spb: Sev.siyaniye 2003.
14. Xoshimova M. Axloqiy tarbiyaning biologik asoslari (monografiya). - T.: 2004.
15. Kasb-hunar ta'limi jurnallari 2000-2008 yillar.
16. Maktab va hayot jurnali 2000-2008 yillar.
17. Xalq ta'limi jurnali 2000-2008 yillar.

Mundarija

I-BOB.

O'QUVCHILARNING KASBIY XISLATLARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

- I.1. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish masalalari hamda muammolari
- I.2. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda didaktik prinsip va xususiyatlar
- I.3. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirib ularni kasb tanlashga yo'llash bosqichlari
- I.4. Kasbiy shakllantirishning forma va metodlari

II-BOB.

MEHNAT TA'LIMI DARSLARIDA O'QUVCHILARNI KASBIY SHAKLLANTIRISH

- II.1. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirish mohiyati
- II.2. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda kasbga yaroqlilik tamoyillari
- II.3. O'quvchilar kasbiy xislatlarini shakllantirishning tarbiyaviy ahamiyati
- II.4. O'quvchilarning kasbiy xislatlarini shakllantirishda kasb konsultasiya ishining maqsad va vazifalari

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati